

**ONA TILI TA'LIMIDA YANGI PAYDO BO'LGAN SO'ZLARNI
O'QITISH USULLARI**

Tursunmurodova Umida

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi

III bosqich talabasi

tursunmurodovaumida828@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limdi yangi paydo bo'layotgan so'zlardan qayerda, qay paytda va qanday qilib o'qitishning o'ziga xos jihatlari haqida bat afsil ma'lumot beriladi. Shunungdek, maqolada yana yangi paydo bo'lgan so'zlarning kelib chiqishi va ularning ta'lim jarayoniga moslashuvchanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Neologizm, zamonaviy lug'at, ta'lim, moslashuvchanlik, ona tili, lug'at boyligi.

Annotatsion: This article provides detailed information on the specifics of where, when, and how to teach newly emerging words in native language education. This article also analyzes the origin of newly emerging words and their adaptability to the educational process.

Keywords: Neologism, modern vocabulary, education, adaptability, mother tongue, vocabulary.

Jamiyat rivojlanishi bilan til ham rivojlanib boraveradi. Bu esa tilda yangidan yangi so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqimizga yaqin kunlarda kirib kelgan so'zlar yangi paydo bo'lgan so'zlar (**neologizmlar**) deb ataladi. Hozirgi zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi va texnologik taraqqiyotning rivojlanishi natijasida yangi so'zlar ya'ni neologizmlar paydo bo'lishi jaddalashib bormoqda. Neologizmlar – yunoncha, “neos – yangi”, “logos – so‘z” so'zlarining jamlanmasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Neologizmlar avvaliga noodatiy so‘zdek bo‘ladi, lekin ko‘p qo‘llanilishi hisobiga – yangilik xususiyatini yo‘qotadi va faol so‘zlar qatoriga o‘tadi.

Ona tili tizimida yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni o‘qitish jarayoni natijasida o‘quvchilarni ona tilida ham nutqiy ko‘nikmalarini ham yozma ko‘nikmalarini shakllantirishga, lug’at boyligini oshirishga, o‘quvchilarning ham til madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Yangi so‘zlarni paydo bo‘lishi ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘ladi. Hozirgi paytda yangi so‘zlar a) – so‘z yasash orqali; b) – qardosh tillarni o‘zlashtirish orqali; d) – axborot texnalogiyalarni rivojlanishi natijasida ham yangi so‘zlar paydo bo‘la boshlamoqda. Ushbu so‘zlar nafaqat leksikani boyitibgina qolmay, jamiyat tafakkuri va ma’naviy dunyosini ham kengaytirishga yordam beradi. O‘quv jarayonida yangi so‘zlarni qo‘llash o‘quvchilarning yangi so‘zlarga moslashishiga, tafakkurining kengayishiga, tanqidiy fikrlay va tahlil qila olishiga katta yordam beradi. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar ta’lim jarayonida qo‘llash uchun turli xil metod va usullatdan foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarga matn berilishi va buni o‘quvchilar o‘sha matndagi yangi so‘zlarni topib ularni ma’nosib bilan birlashtira olishi lozim.

1-topshiriq. Matnni o‘qing va yangi so‘zlarni ajratib ko‘rsating.

Sanjar darsga shoshilib ketayotganida telefoniga bildirishnomalar keldi: “Bugun soat 18:00 da yangi podkast chiqadi!” U avtobusda ketayotib bloger Iroda Diy o‘zining yangi vlogini joylashtirganini ko‘rdi. Qiziqib ko‘ra boshladi. Videoda u o‘zining “influencer” sifatidagi hayoti, TikTok trendlari va sun’iy intellekt yordamida tahrirlangan selfilar haqida gapirardi. Sanjar hayron qoldi: “Hamma narsa zamonaviy, lekin ko‘p so‘zlarni tushunmayapman. Nega endi “eslatma” emas, notifikatsiya? Nega chatbot, nega reel, nega QR-kod? Ona tilim bor-ku! Shularning o‘zbekchasini bilmaymizmi?” U uyga borib bu so‘zlarni daftariga yozdi. Har biriga tushunarli izoh va o‘zbekcha muqobil topishga harakat qildi. Unga shunday tuyuldiki, til o‘zgarayotgan bo‘lsa ham, uni asrab qolish va rivojlantirish aynan o‘zidan boshlanishi kerak.

Podkast	Video formatida olib boriladigan blog; bloger o‘z hayoti, safarlari yoki mavzuli chiqishlarini videoga olib, internetga
---------	---

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	joylaydi.
Bloger	Internet orqali audio formatda uzatiladigan eshittirish; foydalanuvchi istalgan vaqtida tinglashi mumkin bo‘lgan suhbat, intervyu yoki ma’lumotlar to‘plami.
Vlog	Internet orqali audio formatda uzatiladigan eshittirish; foydalanuvchi istalgan vaqtida tinglashi mumkin bo‘lgan suhbat, intervyu yoki ma’lumotlar to‘plami.
Influencer	Inson aqliga taqlid qiluvchi dasturiy ta’milot yoki texnologiya; mashinalarning o‘rganish, mantiq yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatidir.
TikTok	Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p obunachilarga ega, o‘z auditoriyasiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega shaxs (ta’sirchan shaxs).
Sun’iy intellekt	Odamning o‘zini (yoki o‘zini boshqalar bilan) telefon yoki kamera orqali suratga olishi.
Selfi	Avtomatik tarzda yozma yoki og‘zaki muloqot olib boruvchi dasturiy vosita; ko‘pincha xizmat ko‘rsatish tizimlarida qo‘llaniladi.
Notifikatsiya	Inson aqliga taqlid qiluvchi dasturiy ta’milot yoki texnologiya; mashinalarning o‘rganish, mantiq yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatidir.
Chatbot	Maxsus kvadrat shaklida yaratilgan grafik kod, skanerlash orqali ma’lumotga tezkor kirish imkonini beradi (masalan, sayt havolasi, to‘lov sahifasi).
Reels	Avtomatik tarzda yozma yoki og‘zaki muloqot olib boruvchi dasturiy vosita; ko‘pincha xizmat ko‘rsatish tizimlarida qo‘llaniladi.
QR-kod	Instagram yoki boshqa tarmoqlarda qisqa, odatda musiqali, montaj qilingan videorolik.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagи neologizmlarni ma'nosini topib birlashtiring.

Mana shunga o'xshash topshiriqlar orqali o'quvchilarga o'rgatishimiz mumkun.

2-topshiriq. Quyida berilgan yangi so'zlar asosida gap tuzish.

(Ushbu topshiriq asosida o'quvchilarining so'z boyligi oshadi fikrlash doirasi ham kengayadi)

Onlayn

Bloger

Mobilograf

Trend

Xulosa shuki, yangi paydo so'zlarni – ya'ni o'zbek tilidagi neologizmlarni ona tili darslarida o'qitish – faqatgina bu o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishgagina xizmat qilmaydi, balki til va tafakkur uyg'unligini ham shakllantiradi. Buni esa ta'lim jarayonida o'qituvchining darsga nisbatan yangi metodlardan foydalanish deb hisoblash mumkin. Bu yangi so'zlar orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki zamonaviy hayotdagi hodisalarni ham anglashga o'rganadi. Shuning uchun zamon bilan hamnafaslikda ta'lim olishi va o'qituvchilar ham bilimlarini yangilab turishlari doimiy ilmiy izlanishda bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. // – Toshkent: Ma_naviyat, 2008. B. – 87.
2. Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: Filologiya fanlari nomzodi....diss. avtoref. – T., 2010. 6-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli; O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.

REFERENCES:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. // – Toshkent: Ma_naviyat, 2008. B. – 87.
2. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘quv ideografik lug‘atini yaratish tamoyillari: Filologiya fanlari nomzodi....diss. avtoref. – T., 2010. 6-b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jildli; O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.